



ALISHER NAVOIYNING “BADOYI’ UL-BIDOYA” DEVONIDAGI
G’AZALLARDA QO’LLANGAN KELISHIKLAR TASNIFI

Jabborova Elnora Joniql qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Email: axmedovjalollidin41@gmail.com

+998992459805

Annotatsiya: *Ushbu maqolada eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilgan kelishiklarning Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devonidagi g‘azallarda qay darajada qo‘llanilganligi va qanday istisniovij holatlar mavjudligi haqida ma‘lum darajada mulohazalar yuritilgan. Har bir kelishikning alohida shakllariga alohida to‘xtalib, ularga g‘azallar tarkibidagi baytlarda ishlatilishiga doir misollar berilgan. Xulosa qismda esa boshqa davr grammatikasidan farqlanishining sabablari berildi.*

Kalit so‘zlar: *kelishik, davrlashtirish, jarangli, jarangsiz, unli, undosh, qattiq negiz, yumshoq negiz.*

KIRISH.

Mumtoz adabiyotimizning yirik vakili va o‘zining yirik devonlari, turkiy tildagi o‘ziga xos "Xamsa"si, bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega hisoblangan chuqur mushohadali didaktik asarlari bilan butun dunyo tilshunosligiga tanilgan Alisher Navoiy asarlarini bugunga qadar to‘liq va mukammal tarzda o‘rganish va tadqiq etish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Ma‘lumki, Navoiy XV asrda ijod qilgan shaxs sifatida temuriy shaxzoda Husayn Boyqaro taxtda ekanligida ham siyosiy, ham ijodiy ishlarni bir yo‘sinda olib borishga muvaffaq bo‘lgandir.

Navoiyning shunday davrlarda yaratilgan devonlari orasida "Badoyi’ ul-bidoya"devoni mavjud bo‘lib, ushbu devon 1470 - yillar oxirida adibning o‘zi tomonidan tartib berilgan birinchi turkiy she‘rlardan iborat hisoblanadi. Ushbu devon 777 ta g‘azal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit‘a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug‘z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarje‘band, 2 musaddas she‘riy janrlar tarkibidan iboratdir.

Ushbu devon bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Mazkur devon atrofida qilingan ozmi - ko‘pmi ilmiy ishlar mavjud bo‘lib, bular quyidagilar dir: "Badoyi’ ul-bidoya" tadqiqi tarixiga bir nazar"(Oysara Madaliyeva, 2024/maqola), "Badoyi’ ul-bidoya" debochasidagi ijodiy tamoyillarning "Xazoyin ul-maoniy"dagi amaliy ifodasi" (Quysinova Shahnoza, 2023/maqola), "Alisher Navoiyning "Badoyi’ ul-bidoya" asarida frazemalarning qo‘llanilishi" (Suyunova Dildora, 2024, 328-331) kabi maqolalar yuqorida keltirilgan fikrning dalilllari sifatida keltirish mumkin. Bilamizki, Navoiy o‘zining yetuk asarlari bilan bizga nafaqat o‘sha davr badiiy ijodiyotini, balki eski o‘zbek tilining tarixiy grammatikasi haqida ham keng ma‘lumot beruvchi asarlar yarata olgandir. Biz mazkur “ Badoyi’ ul –



bidoya” devonida qo’llangan kelishiklar va ayrim ko’makchilarning qo’llanilish xususiyatlari haqida so’z yuritamiz.

ASOSIY QISM. Turkiy til tarixi qadim davrlardan buyon to hozirgi adabiy til davrigacha ko’plab bosqichlarni bosib o’tgan va bu haqda til tarixini o’rgangan tilshunoslar ham o’z fikrlarini bildirib, turkiy tilning taraqqiyotini turli davrlarga bo’lib o’rganishgan. Xususan, Baskakov, Malov, Borovkov, Sherbak va shu kabi akademik olimlar tomonidan turli xil davrlar va bosqichlarga bo’lib o’rganilgan. Shunday tilshunos olimlardan biri Abdurahmonov o’zining darslik qo’llanmasida quyidagicha tasnif qiladi: O’zbek adabiy tili tarixida quyidagi davrlar ajralib turadi:

1. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo’lgan davr tili).
2. II. Qadimgi turkiy adabiy til (VII asrdan X asrgacha bo’lgan davr tili).
3. III. O’rta Osiyo adabiy tili (XI-XIV asrlargacha).
4. IV. Eski o’zbek adabiy tili (XIV-XVII asrlargacha).
5. V. Yangi o’zbek adabiy tili (XVII-XX asr boshlari).
6. VI. Hozirgi o’zbek adabiy tili (XX asrning 30-yillari) [2, 30].

Biz ham ushbu tasnifni maqullagan holda Navoiy ijod etgan davr til tarixining eski o’zbek adabiy tili davriga to’g’ri kelishini kuzatishimiz mumkin. Shunday ekan Navoiyning “Badoyi’ ul – bidoya” devonida eski o’zbek adabiy tiliga xos bo’lgan kelishiklar va ko’makchilarning qo’llanilishi mavjuddir. Eski o’zbek tilida quyidagi oltita kelishik amalda qo’llangan: 1. Bosh kelishik, 2. Qaratqich kelishigi, 3. Tushum kelishigi, 4. O’rin-payt kelishigi, 5. Jo’nalish kelishigi, 6. Chiqish kelishigi. Eng qadimgi va qadimgi turkiy adabiy til davrlarida vosita kelishigi ham qo’llangan, ammo ushbu davrga kelib bu kelishik iste’moldan chiqqan va qo’llanmagan. Bosh kelishik shakli o’zining maxsus Grammatik ko’rsatkichiga ega emasligi bilan boshqa kelishiklardan farq qiladi. Ushbu kelishik shaklini olgan so’z gapda ko’pincha ega va ot kesim vazifasida kelishini kuzatish mumkin. Xususan, Navoiyning “Badyi’ ul – bidoya” devonidagi g’azallarda quyidagi o’rinlarda bosh kelishikning qo’llanilishini ko’rishimiz mumkin:

1. Ashraqt min aksi shamsil-ka’si anvorul-xudo,
Yor aksin mayda ko’r, deb jomdin chiqti sado [1,14].

Nasriy bayoni: Jom quyoshidan hidoyat nurlari taralmoqda. «Yor aksini mayda ko’r» deb jomdan sado chiqdi. Ushbu devonning birinchi g’azali bo’lmish “Ashraqt” g’azalidan olingan baytda sado chiqti birkimasi tarkibidagi sado bosh kelishikda qo’llangan va gapda ega vazifasida kelgan.

2. Seni topmoq base mushkildurur, topmaslig’ osonkim,
Erur paydolg’ing pinhon, vale pinhonlig’ing paydo [1,14].

Nasriy bayoni: Seni topish juda qiyin, lekin topmaslik oson, chunki paydolinging yashirin-u, pinhonliging paydodir. Ushbu g’azaldan olingan baytda esa pinhon va paydo so’zlari bosh kelishikda qo’llangan bo’lib, paydolinging pinhondir va pinhonliging paydo birikmalari tarkibida ot kesim vazifasida qo’llangan.



Qaratqich, tushum va jo'nalish kelishiklari belgisiz qo'llanganda shaklan bosh kelishikka o'xshash bo'ishi mumkin, lekin ma'no va gapdagi vazifasiga ko'ra farqlanadi. Bu mavzuda keyinroq to'xtalamiz.

Eski o'zbek adabiy tilidagi keying kelishik shakli qaratqich kelishigi bo'lib, ushbu kelishik bu davr adabiyotida ancha keng va unumli foydalanilgan. Qaratqich kelishigining –ning, -nung, -ing, -ung affikslarining til oldi va til orqa variantlari mavjud bo'lib, singarmonizmning lab garmoniyasi va tanglay garmoniyasiga ko'ra asosga qo'shimchalar qo'shiladi. Ushbu kelishikning –im shakli ham mavjud bo'lib, bu affiks qo'llanilishi faqat men va biz olmoshlarigagina qo'shiladi: menim, bizim kabi.

1. Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,

Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o [1,14].

Nasriy bayoni: Husningko'rinishidan har qaysi inson boshiga bir tashvish tushib, ular bilan ikki olam bozorida yuz g'avg'o paydo bo'lgan. Ushbu baytda husnung so'zida qaratqich kelishigining –ung shakli qo'llangan bo'lib, asosda lablangan –u unlisi mavjudligi uchun qaratqich kelishigining –ung shakli qo'llanganini ko'rishimiz mumkin.

2. Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,

Nedin bas la'l o'lur Farhodning qon yoshidin xoro? [1, 15]

Nasriy bayoni: So'zlaringni Shirin labiga yashirmagan bo'lsang, nega Farhodning qon yoshlaridan toshlar yoqutga aylanadi? Ushbu keltirilgan baytda Farhodning so'zida qaratqich shaklining –ning shakli qo'llangan bo'lib, bu o'rinda kelishikning belgisiz qo'llanmaganligining sababi qaratqich va qaralmish orasida sifatlovchi aniqlovchining qo'llanishidir, ya'ni Farhodning qon yoshi birikmasida qon so'zi sifatlovchi aniqlovchidir.

3. Qanoatning dalilin inzivo qilding, yana bir ham

Dalil ushbuki qoni' harfidin xalq aylading anqo [1, 15].

Nasriy bayoni: Tanholikni qanoatning dalili qilding, yana bir dalil shuki, «qoni» so'zi harflaridan anqoni yaratding.

4. Navoiy qaysi til birla sening haming bayon qilsun,

Tikan jannat guli vasfin qilurda gung erur go'yo [1, 15].

Nasriy bayoni: Tikan jannat guli vasfini qilishda soqov bo'lgani kabi, Navoiy qaysi til bilan sanning maqtovingni ayta olardi?! 3-baytda qanoatning so'zida –ning shakli qo'llangan bo'lsa, 4-baytda esa sening so'zi tarkibida –ing shakli qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Qaratqich va tushum kelishiklari kishilik olmoshlariga qo'shilganda affiks tarkibida tovush tushish hodisasi bo'ladi.

5. Nedin yuz gul ochar ishq o'tidin bulbul kibi Vomiq,

Yuzungdin gar uzori bog'ida gul ochmadi Uzro? [1, 15]

Nasriy bayoni: Uzro yuzi bog'ida sening yuzingdan gul ochmagan bo'lsa, nega Vomiq bulbulga o'xshab ishq o'tidan yuz gul ochadi? Ushbu baytda ishq o'tidin (ishqning o'tidan) birikmasida qaratqich kelishigining belgisiz qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Qaratqich kelishigi belgisiz qo'llanganda shaklan bosh kelishikka o'xshab qolsa ham, qaralmish tarkibidagi egalik qo'shimchasi qaratqich kelishigini talab qiladi. Yuqoridagi misolda ham





o'tidin so'zi tarkibidagi –i egalik qo'shimchasi ishq so'zida –ning qaratqich affiksi borligini bildirib turibdi.

Eski o'zbek tilida tushum kelishigining –ni, -i, -n affikslarining til oldi, til orqa variantlari ishlatilgan. Bular bir affiksning turli ko'rinishlari bo'lib, qo'llanishi jihatdan bir-biridan farqlanadi. Ushbu affikslardan eng keng qo'llanilgan shakl –ni affiksi bo'lib, ushbu shakl turkiy til tarixining hamma davrlarida unumli affiks sifatida iste'molda bo'lgan. Xususan, Navoiy lirikasida ham bu affiksning sarmahsul ekanligini ko'rishimiz mumkin. Quyida adibning “Badoyi ul-bidoya” asaridagi misollar bilan fikrimizni dalillaymiz:

1. Kalomingni agar Shirin labida qilmading muzmar,
Nedin bas la'l o'lur Farhodning qon yoshidin xoro?[1,15]

Nasriy bayoni: So'zlaringni Shirin labiga yashirmagan bo'lsang, nega Farhodning qon yoshlaridan toshlar yoqutga aylanadi?.

2. Yo rab, ulus nihoni emastur nihon sanga,
Ne dey nihon g'amimni, erur chun ayon sanga.[1, 16]

Nasriy bayoni: Ey Rabbim! Xalqning (bandalarning) ahvoli Sendan yashirin emas, barcha narsa Senga ayondir. Shunday ekan, yuragimdagi yashirin g'amlarimni Senga aytib o'tirishimning nima hojati bor? Zero, ular Senga allaqachon ma'lumku. Ushbu keltirilgan baytlarda kalomingni va g'amimni so'zlari tarkibida –ni tushum kelishigi belgisi qo'llanganini ko'rishimiz mumkin. Tushum kelishigining –n shakli ham ancha keng qo'llangan hisoblanib, asosan, sheriylar shakllarda vazn talabiga ko'ra ilshlatilgan.

3. Chun koinot zubbasi ojiz ko'rub o'zin,
Hamd eta olmas oncha fasohat bila sanga.[1, 16]

Nasriy bayoni: Koinotning qaymog'i bo'lmish inson (yoki borliqning asli) Sening huzuringda o'zining naqadar ojizligini ko'rib, Senga loyiq yuksak notiqlik va balog'at bilan hamd (maqtov) ayta olmaydi.

4. Mashshotayi sun'ungdurur ulkim, nafas ichra
Kun ko'zgusin aqshom kulidin qildi mujallo.[1, 15]

Nasriy bayoni: Husning bāzakchisi bir nafasda kun ko'zgusini oqshom kulidan tozalab jilo beradi. Ushbu baytlarda keltirilgan o'zin va ko'zgusin so'zlarida tushum kelishigining –n shakli qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Tushum kelishigining -n affiksli shakli ham eski o'zbek tilida ancha keng iste'molda bo'lgan. Lekin bu affiks faqat III shaxs shaklidagi so'zlarga qo'shilgan. Yuqoridagi o'zin, ko'zgusin kabi misollar ham III shaxs egalik shakli bilan shakllangan: O'z+i+n, ko'zgu+si+n. Ushbu kelishikning –i affiksining til oldi til orqa varianti, asosan, o'g'uz dialektiga xos bo'lib, hozirgi kunda ham Xorazm hududida yashovshi xalq tilida iste'moldadir. Navoiy ijod etgan til adabiy til bilan tenglashtirilganligi sababli uning asarlarida bunday affiksning ishlatilganligini ko'rmaymiz.

Eski o'zbek tilida o'rin-payt kelishigini ifodalovchi grammatik shakllar ikki xil shaklda qo'llangan: ushbu kelishikning affiksi qo'shiladigan so'z oxirgi tovushi jarangli tovush yoki unli tovush bilan tugasa, -da affiksining til oldi, til orqa varianti, agar so'z oxirgi tovushi



jarangsiz tovush bilan tugasa, -ta affiksining til oldi, til orqa varianti qo'shilib qo'llanilgan. Misol uchun "Badoyi' ul-bidoya" devonida keltirilgan baytlar tahlilini ko'rib chiqamiz:

1. Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,

Sham' o'tida parvona sening husnunga shaydo.[1, 16]

Nasriy bayoni: Bulbul gul yuzida sening sirlaringga notiq, parvona sham o'tida sening husningga shaydodir.

2. Yo'l emas, Yasribda yirtibtur yuzin tirnog' ila

Maqdaming to yetmadi ul vodiya xurram aro.[1, 15]

Nasriy bayoni: Yasrib (Madina) tuprog'idagi yo'llar shunchaki yo'l emas, balki sening qadaming u quvonchli vodiya yetgunicha (intizorlikdan) o'z yuzini tirnoqlari bilan tilib tashlagan jarohatlardir. Ushbu keltirilgan ikki baytda o'rin payt kelishigining –da shakli qo'llangan bo'lib, birinchi baytdagi o'tida va yuzida so'ziga o'rin-payt kelishigi affiksi –i unidan keyin qo'shilganligi sababli –da shakli qo'llangan bo'lsa, ikkinchi baytdagi Yasribda so'zi orqali o'rin-payt kelishigi jarangli tovush –b dan keyin qo'llanganligi tufayli –da shakli ishlatilgan.

Eski o'zbek tilida jo'nalish kelishigining –ga, -ka, -qa, -g'a, -a affiksining til oldi, til orqa variantlari qo'llangan. Ushbu Grammatik ko'rsatkichlarning qo'llanilishi affiks qo'shiladigan asosning qanday tovush bilan tugashiga bog'liq bo'ladi. Eski o'zbek tilida jo'nalish kelishigining –ga, -ka, -qa, -g'a shakllari keng qo'llangan. Ushbu kelishik qo'shiladigan so'z unli yoki jarangli undosh bilan tugagan qattiq o'zakli so'zlarga qo'shilganda –g'a, -qa shakli jarangsiz o'zak bilan tugagan so'zlarga qo'shilib kelgan. Jarangli undosh bilan tugagan yumshoq o'zakli so'zlarga qo'shilganda –ga shakli, jarangsiz undosh bilan tugagan yumshoq o'zakli so'zlarga qo'shilganda esa –ka shakli qo'llangan.

1. Yo rab, bu xasta ulcha tamanno qilibdurur,

Chun bor ayon sanga, nesin aylan bayon sanga? [1, 16]

2. Zihi husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo,

Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o. [1, 16]

3. Chaman otashgahiga otashin guldin chu o't solding,

Samandardek ul o'tdin kulga botti bulbuli shaydo.[1, 16]

Yuqorida keltirilgan baytlarda ko'rishimiz mumkinki, birinchi baytda sanga, ikkinchi baytda kimga, uchinchi baytda esa kulga so'zlarida –ga jo'nalish kelishigi jarangli –m va-l tovushlaridan keyin yumshoq negiz bilan tugagan so'zlarga qo'shilib kelganiga guvoh bo'lamiz. Uchinchi baytdagi otashgahiga so'zida esa -i unli tovush bilan tugagan yumshoq negizga qo'shilganligi sababli jo'nalishning –ga shakli qo'llangan.

4. Ushshoq aro, yo rabki, Navoiyg'a maqome

Bergilki, sening hamdinga bo'lsun tili go'yo[1, 16].

5. Har tiyra ro'zgorki, vaslingg'a yo'l topib,

Sendin yetib charog'i hidoyat bila sanga.[1, 15]

Ushbu keltirilgan to'rtinchi baytda Navoiyg'a so'zida –y tovushi, beshinchi baytda esa vaslingg'a so'zida esa –ng jarangli tovushlaridan keyin kelib qattiq o'zakka qo'shilgani





sababli jo'nalish kelishigining –g'a shakli qo'llangan. Bundan tashqari jo'nalish kelishigining –a til oldi, til orqa variantlari XIII-XIV asrlarda keng iste'molda bo'lib, XV asr ikkinchi yarmidan faqat she'riy asarlarda qo'llangan va keyingi davrlarda bu shaklni ko'p uchratmaymiz. Navoiyning “Badoyi' ul-bidoya” devonida ham ushbu affiksning ayrim o'rinlarda qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin:

6. Gul yuzida bulbul sening asroringa notiq,
Sham' o'tida parvona sening husnunga shaydo.[1, 16]

Mazkur baytda keltirilgan asroringa va husnunga so'zlari tarkibida jo'nalish kelishigining –ga varianti emas, balki –a varianti qo'llangan. Chunki sening so'zi tarkibidagi –ning qaratqich shakli asroringa va husnunga sozlari tarkibida ikkinchi shaxs birlik –ing egalik shaklining kelishini talab qiladi, natijada jo'nalish kelishigining –a shakli qo'llangan (asos+ikkinchi shaxs egakik+jo'nalish kelishigi = asror+ing+a yoki husn+ing+a) deyish mumkin.

Eski o'zbek tilida qo'llangan oxirgi kelishik shakli bu chiqish kelishigi bo'lib, ushbu kelishikning grammatik shakllari –din, -tin, shakllarining til oldi va til orqa variantlari eng sermahsul sakl sifatida qo'llangan bo'lib, ayrim manbaalarda –dan, -tan, -dun, -tun shakllarining til oldi, til orqa variantlari qo'llanganligi ham ma'lum. –dan, -tan affikslari XIII-XIV yaratilgan “O'g'uznoma”, “Qissasi Rabg'uziy”, “Guliston bit-turkiy” asarlarida qo'llangan va keyinchalik XIX asr oxirida chiqish kelishigining asosiy shakli sifatida ishlatila boshlangan. Chiqish kelishigining –dun, -tun affikslari o'zi qo'shiladigan negizning oxirgi bo'g'ini tarkibida lablangan unli mavjud bo'lgan taqdirda qo'llanilgan: kundun, ko'ktun kabi. “Badoyi ul-bidoya” devonida ham chiqish kelishigining asosiy affiksi sifatida –din va –tin shakllari keng qo'llanilgan va ushbu affikslar kelishik qo'shiladigan asosning jarangli yoki jarangsiz tovush bilan tugashiga bog'liq bo'ladi.

1. Amringdin ayru tilga takallum chu yo'q, ne ayb,
Gar hamd ayta olmasa bu bezabon sanga.
2. Ey, mus'hafi ruxsoring azal xattidin insho,
Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro.
3. Lutfung rafiqim o'lmasa, ne hadki, yetkamen
Boshtin-ayoq gunohu zalolat bila sanga.

Yuqorida keltirilgan birinchi baytda amringdin so'zida kelishik qo'shimchasi –ng jarangli tovushidan keyin qo'shilgan bo'lsa va ikkinchi baytda esa xattidin so'zida kelishik shakli –i unli tovushidan so'ng chiqish kelishigining –din shakli qo'llangan. Uchinchi baytda esa boshtin so'zi tarkibida chiqish kelishigining –tin shakli –sh jarangsiz tovushidan keyin kelhanligi sababdir. Shunday bo'lishiga qaramasdan Navoiy devonida ham jarangli, ham jarangsiz tovush bilan tugagan so'zlarga ham –din shakli qo'llanganligini quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

4. Chaman otashgahiga otashin guldin chu o't solding,
Samandardek ul o'tdin kulga botti bulbuli shaydo.





Ko‘rishimiz mumkinki, guldin so‘zi tarkibida –din shaklining qo‘llanilishi –l jarangli tovush borligi bo‘lsa, o‘tdin so‘zi tarkibida –t jarangsiz tovushidan keyin chiqish kelishigining –din shaklining qo‘llanilganligi yuqoridagi fikrning dalilidir.

XULOSA.

Mazkur maqolada “Badoyi’ ul-bidoya” devonida qo‘llangan eski o‘zbek tilidagi oltita kelishiklarning har bir grammatik shakliga alohida misollar keltirildi va tasniflandi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilgan kelishiklar eng qadimgi turkey til va qadimgi turkey til davrida qo‘llangan kelishiklardan miqdor jihatdan ham, har bir kelishikning alohida Grammatik ko‘rsatkichlaridan ham miqdori jihatidan sezilarli darajada kamayish kuzatilgan. Bunga sabab, bizningcha, birinchidan, oradagi vaqt tafovuti bo‘lsa, ikkinchidan, tilning tarixiy taraqqiyotidir. Tilning tarixiy taraqqiyoti shuki, asrlar osha til ham insonlar bilan birga kamol topadi, ma’lum ma’noda o’sadi, rivojlanadi, o’zgaradi yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketishidir. Shuning uchun ham til bu - tabiiy hodisa emas, balki ijtimoiy hodisa ekanligi tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Ma’lum bir tilga boshqa bir tilning ta’sirida eng avvalo uning fonetikasida, undan keyin leksikasi yoki grammatikasida o’zgarish sodir bo‘lib oxirida sintaksisga ham oz ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Shunday ekan turkey tillar tarixidaham shunday jarayonlar natijasini kelishiklar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий “Бадое’ ул-бидоя” МАТ. 20 жилдлик-Т.: Фан, 1987. Т.1.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008. -582 b.
3. Hojiahmedov A. G‘azal gulzorida 100 otashin gul - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. -208 b.
4. Комилов Н. Маънолар оламига сафар – Тошкент: Тамаддун, 2012. – 316 б.
5. Quysinova Sh. M. (2023) “Badoe’ ul- bidoya” debochasidagi ijodiy tamoyillarning “Xazoyin ul-maoniy”dagi amaliy ifodasi. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” jurnali , (3) 496-501
6. Suyunova D. S. (2024) Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” asarida frazemalarning qo‘llanilishi. “Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali, (2) 328-331